

## TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

**Suyundikov Lochinbek Akmaljon o‘g‘li**  
*Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Ma’lumki, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar davlat budgetining asosiy daromad qismini tashkil qiluvchi moliyaviy manba hisoblanadi. Shunday ekan, tashabbusli budjetlashtirishning asosiy moliyaviy manbalaridan davlat budgeti va mahalliy budget daromadlari hisoblanadi. Bu borada moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, budget daromadlarini oshirish va xarajatlarining maqsadliligini ta’minlash, mahalliy budget daromadlari bazasini kengaytirish, budgetning ochiqligi va shaffofligini oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

“Ochiq budget” axborot portalı orqali jamoatchilik fikri shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish tartibi 2023-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tuman (shahar) mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risida”gi namunaviy nizom asosida amalgalashirilgan. 2024-yildan esa, ushbu namunaviy nizom bekor qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ--IV-sonli Qarori qarori bilan tasdiqlangan “Tashabbusli budget jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom asosida tartibga solinmoqda.

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish manbasi ikkiga bo‘linadi: tuman (shahar)lar budgetlarining tasdiqlangan umumiyligi xarajatlarining 5 foizi hamda, tuman (shahar) budgetlari qo‘srimcha mablag‘larining kamida 30 foizi yo‘naltiriladi<sup>17</sup>.

Fuqarolar tashabbusi asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun mablag‘larni jamlash maqsadida tuman (shahar) budgetlari darajasida (tasdiqlangan xarajatlarning 5% va qo‘srimcha manbalarning kamida 30% miqdorida) maxsus g‘azna hisobvaraqlari “Fuqarolik tashabbusi jamg‘armasi” ochildi.

“Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish manbalari Budget kodeksining 119-moddasiga binoan tumanlar va shaharlarning qo‘srimcha manbalari quyidagilardan iborat:

- har yil boshida aniqlanadigan erkin qoldiq mablag‘lari;
- birinchi - uchinchi hisobot choraklari natijalari bo‘yicha aniqlangan tumanlar va shaharlar budgetlarining daromadlari prognozini ortiqcha bajarish;
- davlat daromadiga o‘tkazilgan mulkni sotishdan tushadigan mablag‘lar;
- elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tumanlar va shaharlar budgetlariga tushadigan mablag‘lar;

<sup>17</sup> O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarori

➤ Budjet kodeksining 120-moddasi to'rtinchi qismiga muvofiq budjet mablag'lari kamayishi natijasida bo'shatilgan mablag'lar.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 94-moddasi 5-bandiga muvofiq, Tumanlar va shaharlar hokimliklari tumanlar va shaharlar budgetlari tasdiqlangan xarajatlarining (bundan tumanlar va shaharlar budgetlari zaxira jam'armalarining mablag'lari mustasno) 5 foiziga teng miqdordagi mablag'larni jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiradi<sup>18</sup>.

Shuningdek, Budjet kodeksining 72-moddasiga ko'ra, Tumanlar va shaharlar budgetlarining xarajatlari tarkibida ham jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga y'naltirilishi belgilangan<sup>19</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash boyicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-som qaroriga muvofiq, jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga ajratiladigan tuman (shahar)lar budgetlari qo'shimcha mablag'larining eng kam miqdori 10 foizdan 30 foizgacha oshirilishi belgilangan<sup>20</sup>. Shu munosabat bilan, qonunchilikni muvofiqlashtirish maqsadida, Budjet kodeksining 94-moddasiga 6-band sifatida "Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga ajratiladigan tuman (shahar)lar budgetlari qo'shimcha mablag'larining eng kam miqdori 10 foizdan 30 foizgacha amalga oshiriladi" deb o'zgartirish maqsadga muvofiq.

2021-yilda eksperiment tariqasida boshlangan "Tashabbusli budjet" 2 yil ichida yirik loyihaga aylandi. Ilk marotaba o'tkazilgan "Tashabbusli budjet" dasturida 2021-yilda jami 530,0 mlrd so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, shundan 208,0 mlrd. so'm budjet mablag'lari va 322,0 mlrd. so'm qo'shimcha mablag'lar evaziga amalga oshirilgan. 2022 yilga kelib ushbu ko'rsatkich o'sish tendentsiyasiga ega bo'lib, "Tashabbusli budjet" loyihasiga jami 2510,0 mlrd so'm yoki 5 barobar ko'p mablag' ajratilgan bo'lib, shundan 1955,0 mlrd. so'm budjet mablag'lari va 555,0 mlrd. so'm mahalliy budgetning qo'shimcha mablag'lari hisobiga amalga oshirilgan. Eng yuqori ko'rsatkich 2023 yilda sodir bo'lib, "Tashabbusli budjet" loyihasiga jami 4000,0 mlrd so'm yoki 2021 yilga nisbatan 8 barobar ko'p mablag' ajratilgan bo'lib, shundan 2300,0 mlrd. so'm budjet mablag'lari va 1700,0 mlrd. so'm mahalliy budgetning qo'shimcha mablag'lari hisobiga amalga oshirilgan.

E'tirof etish joizki, ushbu jarayonlarda fuqarolarimiz faol bo'lib, amalda ham odamlar shaxsiy manfaatlar uchun emas, ichki yo'llarni ta'mirlash, maktablar ta'miri, ichimlik suvi kabi jamiyat manfaati uchun muhim takliflarni qoldirdi. Tashabbuslari ko'p ovoz yig'ib, g'olib chiqqan mahallalar bayramlar uyushtira boshladi. Chunki endi ular mahallasidagi muammolar hal bo'lishi uchun hokimiyatning "mana bu yil, mana

<sup>18</sup> Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси: Расмий нашр -Т.: "Адолат", 2023. – 156 б.

<sup>19</sup> Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси: Расмий нашр -Т.: "Адолат", 2023. – 156 б.

<sup>20</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 yillik 13 apreldagi "Budjet жараёнида фуқароларнинг фаол иштирокини таъминлаш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПК-5072-сон қарори

keyingi yil” degan va’dalari bajarilishini kutib o’tirishi shart emasdi. Bu bilan ushbu loyiha odamlarni birlashtirganiga guvoh bo‘ldik.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini ifodalovchi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri - bu shubhasiz uning budgetidir. Malumki, unda budget tasnifiga ko‘ra davlat budgeti tuzilmasiga kiruvchi budgetlar daromadlari va xarajatlari, shuningdek, uning taqchilligini moliyalashtirish manbalari ifodalanadi.

Mahalliy budgetlar O‘zbekiston Respublikasi budget tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular davlat hokimiyatining har bir mahalliy organi o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun uning ixtiyorida aniq moliyaviy baza yaratadi. Mahalliy budgetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni to‘liqroq hisobga olish hamda davlat tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan tadbirlar bilan to‘g‘ri olib borish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksiga asosan: O‘zbekiston Respublikasi davlat budgetining tuzilishi respublikaning mustaqil davlat va ma’muriy - hududiy tuzilishi bilan belgilanadi. Tarkibiga respublika budgetini, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budgetini va mahalliy budgetlarni olib, tuziladigan ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish davlat rejasiga muvofiq ravishda daromad va xarajatlar boyicha tuziladi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti va mahalliy budget daromadlari va xarajatlarining tarkibi<sup>21</sup> (1-jadval)

(Ko‘rsatkichlar	Yillar (mlrd.so‘m)						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Respublika budgeti daromadlari	62229,5	102627,6	128460,0	147202,3	199500,0	232107,1	270403,1
Respublika budgeti xarajatlari	62170,0	107118,4	121856,4	149950,5	188911,5	227866,6	280725,4
Mahalliy budget daromadlari	18026,5	31083,0	30273,9	29774,7	43033,2	54946,0	58060,1
Ulushi %	28,9%	30,3%	23,6%	20,2%	21,6%	23,7%	21,5%
Mahalliy budget xarajatlari	25485,5	38846,1	35387,8	40217,6	57148,7	79 226,9	74896,7
Ulushi %	40,9%	36,2%	29,0%	26,8%	30,2%	34,7%	26,7%
Yuqori budgetdan olingan subvensiya (transfert) miqdori	7459,3	7763,1	5113,9	10443,0	14115,6	24280,9	23067,7
Ulushi%	11,9%	7,5%	4,0%	7,0%	7,0 %	10,4%	8,5%

1-jadval ma’lumotlarining tahlili ko‘rsatishicha, 2018 yilda respublika budgeti daromadlari 62229,5 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib deyarli to‘rt barobarga oshib 232107,1 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Mahalliy budget daromadlari ham o‘sish tendentsiyasiga ega bo‘lib, 2018 yilda 18026,5 mlrd.so‘mni va 2023 yilda 54946,0

<sup>21</sup>Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳисобот маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди

mlrd.so'mni yoki 3,2 barobarga ko'paygan. Mahalliy budjet daromadlari respublika budjeti daromadlaridagi salmog'i 2018 yilda 28,9 foizni tashkil etgan bo'lsa 2023 yilga kelib 23,7 foiz yoki 13,2 foiz punktiga kamaygan. Shuningdek, yuqori budjetdan olingan subventsiya (transfert) miqdori 2018 yilda 11,9 foizni, eng past ko'rsatkich 2020 yilda 4,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda deyarli ikki barobarga oshib 10,4 foizni tashkil etgan. Bunda mahalliy budjetlarga ajratilayotgan subventsiya (transfert) miqdori summasi 2018 yilda 7459,3 mlrd so'm ajratilgan bo'lib, 2023 yilda eng ko'p 24280,9 mlrd so'mni yoki uch barobar ko'pni tashkil etgan. Ushbu holatni viloyatlar mahalliy budjetlarning harajatlari oshishi va qoplay olmasligi natijasida ko'payishi, shuningdek maqsadli ijtimoiy xarajatlarga ish xaqi va nafaqalarni qoplanishiga sarflanishi bilan izohlashimiz mumkin.

“Tashabbusli budjet” jarayoni 2024-yil 1-mavsumi doirasida g'olib bo'lgan loyihamalar yuzasidan MA'LUMOT									
Hudud nomi	Seralashdan o'tgan loyihamalar soni	Ovozlar soni (ming)	Aholi jalg etilishi darajasi (%)	G'olib loyihamalar soni	O'rtacha bitta tumanda g'olib loyihamalar soni	G'olib loyihamalar qiymati (mild. so'm)	G'olib loyihamalar to'plagan ovoz (ming)	Jami berilgan ovozlardan g'olib loyihamalarga berilgan ovozlar (%)	
<b>Jami</b>	<b>29 015</b>	<b>11 736</b>	<b>32%</b>	<b>2 770</b>	<b>13</b>	<b>3 250</b>	<b>8 757</b>	<b>75%</b>	
Qorag'alpog'iston Respublikasi	1 615	540	27%	199	12	208	371	69%	
Andijon viloyati	2 007	991	29%	205	13	259	765	77%	
Buxoro viloyati	2 108	661	32%	173	13	208	484	73%	
Jizzax viloyati	1 401	596	40%	150	12	184	430	72%	
Qashqadaryo viloyati	2 188	1 562	44%	183	11	244	1 166	75%	
Navoiy viloyati	1 884	365	34%	129	12	136	228	63%	
Namangan viloyati	2 148	890	29%	218	16	250	680	76%	
Samarkand viloyati	2 136	1 486	35%	248	16	307	1 102	74%	
Surxondaryo viloyati	2 684	965	34%	193	13	242	756	78%	
Sirdaryo viloyati	1 328	283	31%	147	13	130	223	79%	
Toshkent viloyati	1 885	790	26%	313	14	350	611	77%	
Farg'ona viloyati	2 845	1 425	35%	262	14	335	1 040	73%	
Xorazm viloyati	2 278	706	35%	152	12	190	526	75%	
Toshkent shahri	2 508	474	16%	198	17	207	375	79%	

“Tashabbusli byudjet” 2024 yil 1-mavsumda g'olib bo'lgan loyihamalar soni viloyatlar kesimida <sup>22</sup> (2-jadval)

Aholini jalg etish darajasi tahlil qilinganda, respublika bo'yicha o'rtacha 32 foizni tashkil etgan holda, eng faol hududlardan Qashqadaryo viloyati 44 fozi, Jizzax viloyati 40 fozi, Samarqand viloyati 35 foiz, Farg'ona viloyati 35 foiz va Xorazm viloyatlari ham 35 foizni tashkl etgan. Eng past darajada Toshkent viloyati 26 fozi va Toshkent shahri 16 foizni tashkil etgan.

Tashabbusli budjetlashtirishning moliyaviy mexanizmining amaldagi holati ahlili yuzasidan quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Respublikada oxirgi yillarda «Ochiq budjet» axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlar “Tashabbusli budjet” loyihasi ishtirokchilari soni va moliyalashtirish mablag'lari miqdori yildan yilga ortib bormoqda.

Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida, jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga ajratiladigan

<sup>22</sup><https://openbudget.uz/statistics/initiative/32/2024/1>

tuman (shahar)lar budjetlari qo'shimcha mablag'larining eng kam miqdori 10 foizdan 30 foizgacha oshirilishi belgilandi. Shu munosabat bilan, qonunchilikni muvofiqlashtirish maqsadida, Budjet kodeksining 94-moddasiga 6-band sifatida "Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga ajratiladigan tuman (shahar)lar budjetlari qo'shimcha mablag'larining eng kam miqdori 10 foizdan 30 foizgacha amalga oshiriladi" deb o'zgartirish maqsadga muvofiq.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi: Rasmiy nashr -T.: "Adolat", 2023. – 156 b;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Mahallalarni obod qilish va yashil makon umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan videoselektr yig'ilishi"dagi nutqi;
3. "Byudjet ma'lumotlarini ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarnining faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgust kunitagi PQ 3917-sonli qarori;
4. "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ 5072-sonli qarori
5. "Tuman va shahar byudjetlari mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish jarayonida fuqarolarning ishtirokini yanada qo'llabquvvatlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-apreldagi PQ-197-sonli qarori;
6. "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-may kunitagi PQ-183 son qarori;
7. "Tashabbusli byudjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-117 son qaror. 2023-yil 10-aprel;
8. [www.openbudget.uz](http://www.openbudget.uz) – ochiq budjet axborot portalı.